

**TUG'RUQ JARAYONIDAGI HOMILADOR AYOLLAR BILAN
MUNOSABATLAR ETIKASI (HAMSHIRALIK ISHI MISOLIDA)**

Olimova Nasiba Komilovna

Xorazm viloyati Urganch davlat unversitetining

Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Urganch shahar tug'ruqxonasi reanimatsiya bo'limi hamshirasi

Anotatsiya: Ushbu maqola tug'ruq jarayonidagi homilador ayollar bilan bo'ladigan munosabat, shifokor va hamshiralarning nutq madaniyati, etikasi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, madaniyat, homiladorlik, hamshira etikasi, operatsiya, bemor, temperament, munosabat, muloqot, muomula, nutq etikasi.

Har qanday kasallik asosiy davolash choralaridan tashqari, bemorga ruhiy ta'sir qilishni ham taqozo etadi. Masalan, operatsiyaga tayyorlanayotgan bemorni jarroh yaxshi so'zlar bilan tinchlantiradi, operatsiyaning muvaffaqiyatli o'tishiga ishontiradi, operatsiyadan keyin sog'ayib oyoqqa turib ketishiga unda ishonch uyg'otadi. Operatsiyadan keyin ham bemor bilan suhbatlashish asosan, uning ruhini ko'tarishga, asabini tinchlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ish bilan albatta, jarrohning o'zi va boshqa tibbiyot xodimlari shug'ullanadi. Homilador ayolning tug'ish paytidagi ruhiy holati, ayniqsa, e'tiborni talab qiladi. Qo'rquvdan tolq'ing qaytib ketish hollari ham ko'p uchraydi. Tug'ayotgan ayoldagi qo'rquvni uni shirin so'z bilan tinchlantirib, yo'qotish mumkin. Yoki teri-tanosil kasalliklarini olaylik. Qattiq asabiy zo'riqishdan keyin terida paydo bo'ladigan qichimalarni kuchli gormonal surtmalarni ishlatib ham yo'qotish qiyin yoki mumkin emas. Lekin platseboterapiya va psixoterapiya usullarini qo'llab bemorni oylab, ba'zan yillab davom etayotgan qichima dardidan xalos etish mumkin. Ma'lumki, qattiq hissiy zo'riqishdan keyin qand kasalligi, xafaqon kasalligi, miokard infarkti, insult kabi og'ir kasalliklar rivojlanadi. Hatto oshqozon-ichak yara kasalligi, qon kasalliklari ba'zan ruhiy zo'riqishlardan keyin paydo bo'ladi. Odam organizmida sodir bo'ladigan har qanday kasalliklarda ruhiy ta'sir albatta ishtirok etadi. Bu esa har bir vrachning psixologiyani mukammal egallashini talab qiladi. Bemorning ruhiyati sog'lom odamnikidan farq qiladi. Har kim betoblikka turlicha munosabatda bo'ladi. Kimdir qattiq siqiladi va o'z ahvolini o'zi og'irlashtiradi, boshqa birov tuzalishdan umidini uzib, taqdirga tan beradi, uchinchi esa sog'ayib ketishiga umid bog'laydi. Bu, albatta, bemorning temperamentiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Demak, bemorni davolashga kirishayotgan har bir vrach uning qaysi temperamentga (xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik) taalluqli ekanligiga ham e'tibor qaratishi lozim. Homiladorlikning so'nggi haftalari bo'lajak onalar bilan bu kunlar qanday o'tdi,

ularni nima bezovta qilmoqda? Ushbu ta'rifga ko'ra, homiladorlikning oxirgi barcha akusherlik oyini, ya'ni 36 dan 40 haftagacha nazoratda o'tkazish mumkin. Aynan shu haftalar davomida ko'p ayollar tug'ishni boshlaydilar. Homiladorlikning so'nggi haftalari juda qiyin. Bu 9 oy ichida orttirilgan vaznga, katta bolaga juda og'irlik qiladi va o'pka va oshqozonga bosgan bachadonga ta'sir qiladi. Va bu barcha muammolardan uzoqdir. Yaxshiyamki, ular juda tez orada yo'q bo'lib ketadilar va shuning uchun ularga e'tibor qaratishga hojat yo'q. Tug'ilgandan keyingi birinchi haftalar hamma uchun imkon qadar qulay bo'lishi uchun yaqin kelajakda uni qanday baxt kutayotgani va yangi oila a'zosining tug'ilishiga qanday tayyorgarlik ko'rish haqida o'ylashimiz kerak.

Bolani orzu qilgan va ohirida homilador bo'lgan ayollarda ham har doim ham homiladorlik yoqmaydi. Ayolning tez orada onaga aylanishi haqidagi xushxabarning eyforiyasidan so'ng, toksikoz kabi homiladorlikning yoqimsiz tomoni juda tez keladi. Doimiy zaiflik, uyquchanlik va ko'ngil aynishni boshdan kechirgan holda, homiladorlikdan zavqlanish qiyin. Ayniqsa ko'pincha birinchi marta bola tug'adigan ayollar tomonidan boshdan kechiriladigan homilador ayollarning qo'rquvlari kasalliklarga juda tez qo'shilishadi. Shifokorlar ko'pincha bu qo'rquvni qizdiradilar, homilador onaga tahlildagi har qanday og'ishlar, ultratovush tekshiruv natijalari va boshqalar haqida ma'lumot berishadi. Taassurot qoldiradigan homilador qiz nafaqat o'ziga, balki oilasiga ham tegib, kosmik miqyosda mutlaqo murakkab muammoni yuzaga keltirishi mumkin. Homiladorlikning keyingi bosqichlarida, toksikoz allaqachon orqada qolgandek tuyulganda, ayol tez vazn ortishi sababli tashvishlana boshlaydi. Homilador ayollarning qo'rquvlari ko'pincha tug'ruqdan keyin asl holatiga qaytish uchun ishlamaydi degan fikr bilan bog'liq.

Qadimdan so'z buyuk shifobaxsh kuch-qudratga ega bo'lib kelgan. So'z odamzod zabanidagi eng aziz gavhardir. Mashhur yunon hakimi Buqrot «Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo'lmaydi», deb ta'kidlaganida aynan «so'z»ni nazarda tutgan. [Darhaqiqat](#), turli kasalliklar ruhiyatda u yoki bu o'zgarishlarni vujudga keltiradi, bu esa bemorlar bilan bolgan muloqotda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi - nutq orqali bu muloqot namoyon bo'ladi. Zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh omil sifatida so'zning ahamiyati yanada ortdi. Turli davrlarda nutq madaniyatiga doimo katta e'tibor bilan qaralgan. Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot san'atiga beka mu ko'st, mohirona amal qilish oson emas. Bu tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba'zida aktyorlik darajasidagi mahoratni, qisqa so'z bilan aytganda etika talab qiladi. Qadimgi hind tabibi Sushruta: «So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmog'i lozim», deb yozgan edi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir. Abu Ali ibn Sinoning zamondoshi Muhammad Zakariyo ar-Roziy «Tibbiyot hikmatlari» asarida shunday yozadi: «O'zini

tib olamiga bag'ishlagan [inson eng avvalo](#), bilimli, kamtarin, insonparvar, haqparvar, mulohazali, fahm-farosatli, istalagan masalaning mohiyatini tushuna oladigan bo'lishi lozim». Bu ta'rifga sazovor bo'lish uchun tibbiyot xodimidan katta bilim sohibi bo'lish talab qilinadi. Buning uchun shifokor va hamshira tib ilmlarini egallabgina qolmay, [balki adabiyot](#), san'atni bilishi, nutq go'zalligini takomillashtirishi lozim. Nutqning vazminligi, yorqinligi, go'zalligi va hikmatliligidan tashqari, shifokor va hamshira uchun nutqdagi xulq-atvor, uslub, ohang, dadillik, ma'lum darajada chiroyli talaffuz ham muhimdir. Shifokor va hamshiraning nutqi dalilga asoslangan va ishonitiruvchan, bemorni o'ziga [rom qilib oladigan](#), aytgan tavsiya va ko'rsatmalariga rioya qilishga undaydigan bo'lishi kerak. Shifokorning fikri maqsadli, izchil bo'lishi, bemor uning so'zlaridagi kuchni, asoslanganlikni hamda o'zi haqidagi g'amxo'rlikni sezishi kerak. Tajribali shifokor kitob, she'r mutolaa qilayotganida, teatrda borganida oqilona jumlar, she'riy satrlarni yodda tutishga harakat qilib, ularni bemorlar bilan bo'ladigan suhbatlarida qo'llay oladigan bo'lmog'i darkor. Bemorlar bilan suhbatda shifokor xalq donishmandlarining hayotni sevish, kelajakka [ishonch haqidagi qisqa](#), yorqin ifodalangan maqollardan va o'gitlardan ham foydalanishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, keng ma'lumotga egalik, his-tuyg'ularni tarbiyalash, xususan, nutq madaniyati bemorlar bilan mohirona va ta'sirliso'z orqali aloqa o'rnatishning asosidir. Nutqning ohang ifodasi, talaffuzi ayniqsa muhimdir. Suhbatda keskin, qo'pol, baland ohangda gapirish bemor bilan iliq munosabatni o'rnatishga xalaqit beradi. Bu to'g'rida nemis faylasufi Gegel shunday degan edi: «Ovozning xush ohangligidan gapirayotgan odam qalbining go'zalligini, uning ovozidagi qo'pollikda esa unga xos bo'lgan qo'pol hissiyotni anglab olish mumkin» Shifokor va hamshira butun hayoti davomida nutqining aniqligi, o'tkirligi, go'zalligi ustida ishlashi kerak. Bu holat shifokor kasbi va bemorlar bilan bo'ladigan jonli muloqoti uchun zarurdir. Afsuski, ayrim tibbiyot xodimlari o'rtasida nutq madaniyatiga ega bo'lish mutaxassis - psixoterapevtning vazifasi, oddiy terapevt yoki jarrohning bundan boshqa tashvishlari ko'p va ular «so'z ustasi bo'lishlari shart emas», degan fikr bor. Yo'q, nutq madaniyatiga ega bo'lish har bir tibbiyot xodimi uchun juda zarurdir. So'z [sizning ichingizda ekan](#), u sizning qulingiz. Tashqariga chiqqanida esa Siz o'zingiz uning quliga aylanib qolishingiz hech gap emas.

Tug'ruq davridagi homilador ayollar bilan nutq madaniyatiga doimo katta e'tibor qaralgan. Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot san'atiga bekamu ko'st, mohirona amal qilish oson emas. Bu tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba'zida aktyorlik darajasidagi mahoratni talab qiladi. Qadimgi hind tabibi Sushruta: «So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmog'i lozim», deb yozgan edi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir.